

UDK: 37.018.43

**PEDAGOGIK HAMKORLIK ASOSIDA BOSHLANG'ICH TA'LIM
O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYASINI
SHAKLLANTIRISH: METODIK VAZIFALAR TAHLILI**

Olimova Nodirabegim Ibroximjon qizi.

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti

Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

nodirabegim3363@icloud.com

+998941056363

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetensiyalarini pedagogik hamkorlik asosida rivojlantirish masalasi yoritilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-26-sonli Farmonida belgilangan vazifalar kontekstida pedagogik hamkorlikning ahamiyati, uning metodik tayyorgarlikdagi o'rni, kompetensiya tarkibiy qismlari va ularni shakllantirish usullari tahlil qilingan. Shu bilan birga, L.S. Vygotskiy, J. Bruner, A. Bandura va J. Hattie kabi olimlarning nazariyalari asosida pedagogik hamkorlikning samaradorligi asoslab berilgan.

Аннотация: В статье рассматривается вопрос развития методических компетенций будущих учителей начального образования на основе педагогического сотрудничества. В контексте задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан от 28 февраля 2023 года № PF-26, проанализирована роль педагогического сотрудничества в методической подготовке, структурные компоненты компетенций и методы их формирования. Кроме того, эффективность педагогического взаимодействия обоснована на основе теорий Л.С. Выготского, Дж. Брунера, А. Бандуры и Дж. Хэтти.

Abstract: This article explores the development of methodological competence among prospective primary school teachers through pedagogical collaboration. It analyzes the significance of pedagogical cooperation within the framework of tasks outlined in the Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan No. PF-26 dated February 28, 2023. The study highlights the role of collaboration in teacher training, the components of methodological competence, and approaches to its formation. The effectiveness of pedagogical interaction is also substantiated based on the theories of L.S. Vygotsky, J. Bruner, A. Bandura, and J. Hattie.

Kalit so'zlar: metodik kompetensiya, pedagogik hamkorlik, boshlang'ich ta'lim, mentorlik, refleksiya, innovatsion metodlar.

Ключевые слова: методическая компетенция, педагогическое сотрудничество, начальное образование, наставничество, рефлексия, инновационные методы.

Keywords: methodological competence, pedagogical collaboration, primary education, mentoring, reflection, innovative methods.

Kirish.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetensiyasini pedagogik hamkorlik asosida rivojlantirish masalasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-26-sonli Farmonida ilgari surilgan vazifalar bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu hujjatda ta'lim mazmuni va sifatini yuksaltirish, pedagogik kadrlar tayyorgarligini kompetensiyaviy va amaliyotga yo'naltirilgan asosda tashkil etish, shuningdek, mentorlik va pedagogik hamkorlik muhitini shakllantirish zarurligi alohida ta'kidlangan.

Farmonda ko'rsatilgan ustuvor yo'nalishlar ayniqsa boshlang'ich ta'lim sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun metodik tayyorgarlikni chuqurlashtirish, dars loyihalash, refleksiv yondashuvni rivojlantirish va innovatsion metodlardan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, pedagogik hamkorlik asosida metodik kompetensiyani shakllantirish zamonaviy pedagogik tadqiqotlar doirasidagi dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning individual ta'limiy ehtiyojlarini aniqlay olish, ularning yosh xususiyatlari va rivojlanish darajasiga mos metodik yondashuvlarni tanlay bilish bevosita o'qituvchining metodik kompetensiyasi darajasiga bog'liqdir. Bu kompetensiya quyidagi tarkibiy komponentlar orqali namoyon bo'ladi:

Kognitiv komponent – metodik bilimlarning nazariy asoslarini puxta o'zlashtirganlik;

Ijodiy komponent – yangi, noan'anaviy metodik yondashuvlarni yaratish va qo'llash layoqati;

Analitik komponent – o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni anglash va ularni tuzatishga qaratilgan reflektiv salohiyat;

Motivatsion-kommunikativ komponent – hamkorlikka asoslangan muloqot olib borish, ijobiy o'quv muhitini shakllantirish ko'nikmalari;

Amaliy-instrumental komponent – darslarni samarali rejalashtirish, metodik vositalarni to'g'ri tanlash va amaliyotda qo'llay olish malakalari.

Bugungi kunda jahon miqyosida ta'lim jarayonida pedagogik hamkorlik sohasidagi izlanishlarga alohida e'tibor qaratilib, talabalarning ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda maqsadga yo'naltirilgan hamkorlikda o'qitish faoliyatni amalga oshirishga doir ilmiy tadqiqotlarga e'tibor qaratilgan. Bunday yondashuv shaxsga yo'naltirilgan ta'lim strategiyasi talablari asosida talabalarda shaxsiy va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishni nazarda tutuvchi ta'lim-tarbiyaning samarali shakllari va usullarini joriy etish, o'qituvchi va talabaning o'zaro hamkorligiga asoslangan ta'lim jarayonini tashkil etishni yanada

rivojlantirish, oliy ta'limda hamkorlikda o'qitish ta'lim muhitini shakllantirish metodikasini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Bo'lajak pedagoglarda ushbu kompetensiyani sifatli shakllantirishda pedagogik hamkorlik yondashuvi asosiy metodik mexanizm sifatida xizmat qiladi. Sababi, hamkorlikka asoslangan ta'limiy faoliyatda talabalar ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida — rejalashtirish, tashkil etish, tahlil va refleksiya bosqichlarida — faol ishtirok etadilar. Bunday yondashuv o'zaro fikr almashinuvi, mentorlik, tengdoshlar bilan o'zaro o'rganish, amaliyotda dars jarayonini tahlil qilish va kuzatish kabi usullar orqali metodik tajriba orttirish imkonini beradi. Natijada nazariy bilimlar real pedagogik amaliyot bilan uyg'unlashadi va mustahkamlanadi.

Shunday qilib, pedagogik hamkorlik nafaqat kommunikativ jarayon, balki metodik kompetensiyani izchil, bosqichma-bosqich va samarali shakllantirishning zaruriy vositasi sifatida qaraladi. Bu yondashuv pedagogik tayyorgarlikni chuqurlashtiradi, talabalarda kasbiy refleksiya, ijodkorlik va tashabbuskorlik kabi sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu boisdan ham boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida pedagogik hamkorlik asosida metodik vazifalarni aniqlash hamda ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Tahlil va natijalar

Pedagogik hamkorlik — bu o'qituvchi va o'quvchi, ustoz va shogird, hamkasblar, hamda tengdoshlar o'rtasida maqsadli, o'zaro manfaatli va rivojlantiruvchi ta'limiy aloqalarni shakllantirish jarayoni bo'lib, u ko'p hollarda kooperatsiya, kommunikatsiya, qo'llab-quvvatlash va o'zaro o'rganishga asoslanadi. Bu yondashuv ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi subyektlarning bir-birini tushunishi, o'zaro fikr almashuvi va faol hamkorlikda bilimlarni o'zlashtirishini ko'zda tutadi. L.S. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” haqidagi nazariyasida ta'kidlanganidek, talaba mustaqil bajara olmaydigan ko'nikmalarni hamkorlik orqali egallashi mumkin. Aynan pedagogik hamkorlik ana shunday ijtimoiy o'rganish muhiti yaratib, talabaning yangi metodik tajribalarni o'zlashtirishiga sharoit yaratadi.

Shuningdek, J. Bruner ta'lim jarayonini madaniy faoliyat sifatida izohlab, bunda kooperativ o'rganish va ijtimoiy o'zaro ta'sir vositasida bilimlar shakllanishi muhimligini ta'kidlaydi. Bunday yondashuv metodik kompetensiyani rivojlantirishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi, chunki u o'qituvchi nomzodlarni turli ta'limiy vaziyatlarda analitik fikrlash, innovatsion yondashuv va reflektiv ko'nikmalar asosida faoliyat yuritishga o'rgatadi.

Boshlang'ich ta'lim tizimida pedagogik hamkorlik quyidagi shakllarda qo'llanilishi mumkin:

- Mentorlik va ustoz-shogird tizimi orqali pedagogik tajriba va metodik yondashuvlarni amaliyotga tatbiq qilish;

- Tengdoshlar bilan hamkorlik (peer-learning) orqali o‘zaro o‘rganish, birgalikda muammoni hal qilish va o‘zaro baholashni yo‘lga qo‘yish;

- Universitet-maktab hamkorligi doirasida real dars jarayonlarini kuzatish, dars tahlili, rejalashtirish va refleksiya asosida talabalarning metodik ko‘nikmalarini shakllantirish;

- Hamkorlikda loyihalashtirish orqali guruhviy ish, muloqot, rejalashtirish va ijodiy yechimlarni ishlab chiqish.

Aynan metodik kompetensiyani rivojlantirishda pedagogik hamkorlik mashg‘ulotlarni rejalashtirish, amaliyotda qo‘llash va o‘z faoliyatini baholashga doir salohiyatni kuchaytiradi. A. Bandura tomonidan ilgari surilgan sotsial-kognitiv nazariyada insonlar o‘z tajribalarini boshqalarning kuzatuvi, muhokamasi va model orqali o‘rganishini ta’kidlaydi. Bu esa pedagogik hamkorlik doirasida bilim va ko‘nikmalarni **“kuzatish + baholash + qo‘llash”** yo‘li bilan o‘zlashtirishda o‘z aksini topadi.

Shuningdek, J. Hattiening “Visible Learning” konsepsiyasida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikning ta’lim samaradorligiga bevosita ta’siri isbotlangan bo‘lib, u “feedback”, ya’ni faol qayta aloqaning kompetensiyalarni rivojlantirishdagi hal qiluvchi rolini alohida ko‘rsatadi.

Xulosa

Pedagogik hamkorlik boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashda nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki amaliyotda qo‘llash, tahlil qilish va ijodiy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali usul hisoblanadi. Bu esa metodik kompetensiyaning barcha komponentlari – kognitiv, ijodiy, analitik, kommunikativ va amaliy-instrumental jihatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28-fevraldagi PF-27-sonli 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 02.03.2023-y., 06/23/27/0121-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son; 29.12.2023-y., 06/23/216/1008-son; 21.11.2024-y., 06/24/185/0944-son
2. Obozov N. N., Polezhaeva O. D. Principles of system approach in psychology as the main tools of knowledge of the psyche in B. F. Lomov’s concept / Fundamental and applied research of modern psychology: results and development prospects/ed.by A. L. Zhuravlev, V. A. Koltsova. Moscow: Publishing House of the Institute of Psychology, Russian Academy of Sciences, 2017. 704 p.;
3. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O‘qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta’lim sohasi bakalavriat yo‘nalishi uchun darslik/ M.X. Toxtaxodjayeva, S. Nishonova, J. Hasanboyev, M.Usmonboyeva, S. Madiyarova, A. Qoldibekova, N. Nishonova, N. Sayidahmedov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim

- vazirligi. — Toshkent: « O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010. – B. 400.
4. Ratcliffe M. Pedagogical content knowledge for teaching concepts of the nature of science, 2011. Retrieved from
 5. Хайдаров Ф.И. Муслимов Н. Педагогик кадрлар тайёрлаш истиқболи. Педагогик таълим. Тошкент.: 6-сон 2009. –Б. 8-9.
 6. Ходжаев Б.Қ., Жураев Б.Т. Педагогик фаолиятга кириш. Монография. – Тошкент, 2019, -Б. 124-128
 7. <https://webofknowledge.com>